

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Son 4. Jild 4.

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 4 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Ҳожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудир;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Qurbonov Murodjon Dehqonboy o'g'li</i> "KASHKULI SALIMIY" ASARIDA USMONIY HUKMDORLAR TARIXINING YORITILISHI.....	12-17
<i>Ismoilova Diyoraoy Xursandjon qizi</i> AMIR NASRULLOH DIPLOMATIYASI	18-23
<i>Tursunov Farrux Fulomovich</i> ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДАГИ ТОЖИКЛАРГА ХОС УРФ-ОДАТ ВА МАРОСИМЛАР	24-28
<i>Usmonaliyev Isroiljon Ibrohimjon o'g'li</i> FARG'ONA VODIYSIDA "O'ZBEK" ETNONIMINING TARQALISHI	29-34
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i> YEVIROOSIYO CHORVADOR QABILALARINING FARG'ONA VODIYSIGA KIRIB KELISHI.....	35-40
<i>Esanova Nilufar Pulatovna</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA YENGIL SANOAT SOHASIDAGI O'ZGARISHLAR	41-46
<i>Abduraхимова Сабоҳат Эргаш қизи</i> БУХОРО АМРЛИГИ ДАВРИДА ЧИРОҚЧИ ТУМАНИНИНГ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ТАРИХИ	47-53
<i>Toshturov Shuxrat</i> MUSTAQILLIKKACHA BO'LGAN DAVRDA NAVOIY VILOYATI SANOAT KORXONALARINING EKOLOGIK MUHITGA TA'SIRI	54-60
<i>Kanimkulov Olimjon Sheraliyevich</i> AKADEMIK YAHYO G'ULOMOV FAOLIYATI HAQIDA QAYDLAR ("XORAZMNING SUG'ORILISH TARIXI" ASARI MISOLIDA).....	61-65
<i>Begniyazova Gozzal Allambergenovna</i> QORAQALPOQ XALQ ERTAKLARINING YIG'ILISHI VA NASHR QILINISHI.....	66-70

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Султонов Баходир Файзуллаевич, Тураева Гулизахро Каххоровна, Норбўтаев Бахтиёр Абдурахимович</i> СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ДОНЛИ ЭКИНЛАР ХОСИЛДОРЛИГИНИНГ 2024-2027 ЙИЛГАЧА БЎЛГАН ПРОГНОЗ ПАРАМЕТРЛАРИ.....	71-78
<i>Abdiganieva Zarapshan Salievna</i> YANGI O'ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	79-85
<i>Otaxonova Odinaxon Inomovna</i> QORAMOLCHILIK MAHSULOTLARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA OZUQA BAZASINI YAXSHILASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	86-94
<i>Rahimov Oйбек Бахтиёрович</i> СУҒУРТА ХИЗМАТЛАРИ БОЗОРИДА МАРКЕТИНГ ФАОЛИЯТИНИ РЕЖАЛАШТИРИШ АСОСЛАРИ	95-99
<i>Хушмурадов Оман Намозович</i> СУВ ХЎЖАЛИГИНИ БОШҚАРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ	100-110

<i>Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li, Karabayev Rustam Zafarovich</i> BULUTLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BIZNES JARAYONLARNI TASHKIL ETISH YO'LLARI	111-125
<i>Фаттахова Муниса Абдухамитовна</i> ПОНЯТИЕ И ПУТИ ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ КРЕДИТНЫМ ПОРТФЕЛЕМ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ	126-133
<i>Isayev Jahongir Muzaffarovich</i> SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TIZIMINI TA'MINLASH IQTISODIY МЕХАНИЗМНИНГ АСОСИЙ YO'NALISHI SIFATIDA	134-140
09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ	
<i>Tilavova Umida Qahramonovna</i> RAQAMLI JAMIYATLAR TIZIMIDA INFORMATSION ETIKA KATEGORIYA VA ТАМОЙИЛЛАРИНИНГ АНАМИЯТИ	141-147
<i>Yulchiyev Avazbek Maxamadjonovich</i> IJTIMOIY TEXNOLOGIYALAR HAQIDAGI G'OYALARNING SHAKLLANISH EVOLYUTSIYASI	148-154
<i>Каримова Гулчеҳра Абдукаримовна</i> ДУНЁ ДИНЛАРИ ВА ТАЪЛИМОТЛАРДА ОТАЛИКНИ ТУШУНИШ ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИХАТЛАРИ	155-163
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i> ISLOM FALSAFASIDA DALILLASH VA VAHS YURITISH USULI ZAMONAVIY ARGUMENTLASH NAZARIYASI TALQINIDA	164-168
<i>Muminov Nozim Naimovich</i> THE PHENOMENOLOGICAL APPROACH IS THE KEY TO UNDERSTANDING THE SPREAD AND TRANSFORMATION OF SUFISM IN THE WEST	169-175
<i>Турсунов Мухиддин Болтаевич</i> СОЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ СОВРЕМЕННОЙ МОЛОДЁЖИ	176-180
<i>Mamarasulov Ulug'bek Umirzoqovich</i> SPORT TURLARINING FALSAFIY-ESTETIK TAHLILI	181-184
10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	
<i>Исанова Феруза Тулқиновна</i> ЎЗБЕК ТИЛИДА ХАЛҚАРО ҲУҚУҚ СОҲАСИГА ОИД ЛЕКСИК БИРЛИКЛАР ВА УЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИХАТЛАРИ	185-191
<i>Петрухина Наталья Михайловна</i> КОРАНИЧЕСКИЕ МОТИВЫ В ТВОРЧЕСТВЕ А.С.ПУШКИНА И ЕГО СОВРЕМЕННИКОВ	192-197
<i>Исаров Оман Рисалиевич</i> ЎЗБЕК ВА ИНГЛИЗ ТИЛЛАРИДА ТАКСИС КОНВЕРБИАЛ ВЕРБАЛИЗАЦИЯСИ	198-205
<i>Родина Ирина Витальевна</i> АНТИНОМИЧЕСКАЯ ПАРА «МЕСТЬ» И «ПРОЩЕНИЕ» В ПОВЕСТИ-СКАЗКЕ Л. БОРОДИНА «ГОД ЧУДА И ПЕЧАЛИ»	206-211
<i>Ataeva Gulchekhra Bakhtiyorovna</i> THE ROLE OF IDIOMS IN ENHANCING BUSINESS COMMUNICATION: A STUDY ON THE USAGE OF IDIOMS IN BUSINESS LETTERS	212-220

<i>Erkinova Marxobo</i> ASSOTSIATIV MAYDON HOSIL QILISHDA LINGVISTIK OMILLARNING O'RNI	221-229
<i>Gulyamova Shahzoda Baxtiyor qizi</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI MATNLARNING SINTAKTIK STRUKTURASI VA PRAGMATIK XOSLANISHI	230-234
<i>Batyrkhanova Madina Oybekovna</i> THE SOMATIC CULTURAL CODES IN THE STUDY OF ENGLISH, RUSSIAN AND UZBEK PHRASEOLOGISMS	235-244
<i>Aslonov Shahram Sherzod ugli, Saidova Marjona Abdimutal qizi</i> PECULIARITIES OF TRANSLATION OF POLITICAL TEXTS IN SIMULTANEOUS INTERPRETATION	245-250
<i>Olimova Dilafruzxon Baxtiyorjon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SUBYEKTIV VAHONING IFODALANISHI	251-254
<i>Bobojonov Dilshod Jumaqul o'g'li</i> INGLIZ VA O'ZBEK GAZETA SARLAVHALARIDA PUBLISISTIK USLUB BELGILARINING NAMOYON BO'LISHI	255-260
<i>Абдуллаева Нилуфар Рамазоновна, Шаймарданова Мухлиса Усмановна</i> СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПТА “РАСТЕНИЕ” В СОПОСТАВЛЯЕМЫХ ЯЗЫКАХ	261-266
<i>Хайруллоева Сitora Lutfulloevna</i> PSYCHOLOGICAL NOVELS OF US AND THE DEVELOPMENT OF PSYCHOLOGYSMS	267-272
<i>Qudratova Muxiba Kamolovna</i> “LYUIS KERROLLNING ALISA MO' JIZALAR MAMLAKATIDA ASARIDAGI HAYVON OBRAZLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI”	273-279
<i>Убоженко Анна Станиславовна</i> ОСОБЕННОСТИ ТЮРКСКИХ ЗАИМСТВОВАНИЙ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ	280-285
<i>Тухтаева Наргисхон Исамутдиновна</i> ОТРАЖЕНИЕ ДУХОВНОГО УПАДКА ОБЩЕСТВА И ЕГО ПОСЛЕДСТВИЙ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ	286-292
<i>Gulnora Xolmurodova Sattorovna, Bo'ronova Mekkamtosh Xoliqulovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK LISONIY MANZARASIDA MAQOLLARNING O'RNI	293-297
<i>Алибаева Лола Намазовна</i> ЖЕНСКИЕ ОБРАЗЫ В РАССКАЗАХ Л. ПЕТРУШЕВСКОЙ	298-303
<i>Eshqurbonova Aziza Bozor qizi</i> DIALOGIK NUTQDA SAVOLLARNING IFODALANISHI	304-308
<i>Norova Rahima Fayzulloevna</i> O'ZBEK VA INGLIZ ADABIY ERTAKCHILIGIDAGI SEHRLI VOSITALARNING QO'LLANISHIDA O'XSHASH JIHATLAR	309-316
<i>Egamberdiyeva Iroda Abdurahimovna</i> TRANSLATIONS OF HISTORICAL WORKS INTO ENGLISH	317-323
<i>Axmedova Adolat Ravshan qizi</i> GASTRANOMIYA TUSHUNCHASI HAMDA GASTRANOMIK REKLAMA MATNLARI	324-330

<i>Asqarova Madina Boymurod qizi</i> KORPUS LINGVISTIKASIDA MATN ANNOTATSIYASINING LINGVISTIK MUAMMOLARI	331-334
--	---------

<i>Калниязов Есемурат Шамшетович</i> ГОСТЕВОЙ ЭТИКЕТ И СИСТЕМА ЦЕННОСТЕЙ	335-342
---	---------

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Bahodir To'raev</i> HUQUQIY MADANIYAT VA HUQUQIY TARBIYANING DEMOKRATIK DAVLAT RIVOJLANISHIDAGI ROLI	343-351
---	---------

<i>Турсоатов Содиқ</i> РАҒБАТЛАНТИРУВЧИ ҲУҚУҚИЙ СИЁСАТ ТУШУНЧАСИ ВА УНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ	352-357
--	---------

<i>Хидиров Фурқат Шукуруллаевич</i> МАҲАЛЛА ҲУҚУҚ-ТАРТИБОТ МАСКАНИ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ТАРТИБИНИНГ АСОСИЙ ВАЗИФАЛАРИ	358-363
---	---------

<i>Рахимбаев Уткир Файзуллаевич</i> ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ КРИТЕРИЕВ ОЦЕНКИ ИНФРАСТРУКТУРЫ И СЕРВИСА ДЛЯ ТУРИСТОВ	364-372
---	---------

<i>Турсынбаев Азизбек Халмурзаевич</i> МЕЖВЕДОМСТВЕННОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ КАК СПОСОБ РЕАЛИЗАЦИИ ИСПОЛНИТЕЛЬНОЙ ВЛАСТИ	373-377
--	---------

<i>Yakubov Abduraxmon Turayevich</i> TA'LIM HUQUQINING HUQUQIY SAVODXONLIKNI AMALGA OSHIRISHDAGI O'RNI	378-382
---	---------

<i>Rasulov Salimbek Baxtiyor o'gli</i> YEVROPA KENGASHINING KORRUPSIYA UCHUN JINOIY JAVOBGARLIK BO'YICHA KONVENSIYASI – KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING ZAMONAVIY XALQARO HUQUQIY ASOSLARIDAN BIRI SIFATIDA	383-387
---	---------

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

<i>Хайров Расим Золимхон угли</i> АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА	388-395
--	---------

<i>To'rayev Panji To'xtayevich</i> OLIY TA'LIM MUASSASASIDA KURASHCHILARNI PSIXOLOGIK JIHATDAN TAYYORLASH	396-400
---	---------

<i>Xushnazarova Ma'mura Nodirovna</i> TALABALARNI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHDA IJTIMOIIY FAOLLIKNING AHAMIYATI	401-406
--	---------

<i>Yuldasheva Sayyora Aliaskarovna</i> TA'LIM TIZIMIDA INGLIZ TILINI INTEGRATSION O'QITISH	407-411
---	---------

<i>Turdimurodov Dilmurod Yo'ldoshevich</i> SPORT MASHG'ULOTLARI JARAYONIDA PEDAGOGIK NAZORATNING AHAMIYATI	412-418
---	---------

<i>Абдувахобов Искандер, Гизатулина Ольга Ивановна</i> ОРГАНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В СМЕШАННЫХ СРЕДАХ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ВУЗА	419-426
<i>Назарова Озода Шавкатовна</i> СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ВЫСШЕМ УЧЕБНОМ ЗАВЕДЕНИИ	427-432
<i>Pirnazarova Sevara Doniyor qizi</i> OLIQ O'QUV YURLARIDA XORIJIY TILNI O'QITISHDA O'YIN USULLARINI QO'LLASH	433-438
<i>Ko'ziyeva Gulnoza Maxamadaliyevna</i> BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK SALOHİYATINI OSHIRISH METODIKASI	439-444
<i>Умирзокова Сурайё</i> ТАЛАБАЛАРИНИНГ КИНЕТИК ИНТЕЛЛЕКТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ТАЖРИБАСИ	445-451
<i>Olimova Nigora</i> MUVAFFAQIYATLI O'RGANISHDA SINFINI BOSHQARISH KO'NIKALARINING AHAMIYATI	452-463
<i>Nabiyeva Firuza Odil qizi</i> “ELEKTROMAGNETIZM” BO'LIMINI O'QITISHDA AMALIY MASHG'ULOTLARNING AHAMIYATI	464-471
<i>Sobirova Oygul Alimovna</i> BO'LAK MUSIQA O'QITUVCHILARIDA METODIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING MAVJUD HOLATINI TAHLILYI VAHOLASH	472-479
<i>Shermatov G'ulom Kaxxorovich</i> IMPROVING THE TECHNIQUE OF BADMINTON SPORTS TRAINING	480-486
<i>Shamirzayeva Zarifa Xudoyorovna</i> TALABALARDA KASBIY KO'NIKALARNI SHAKLLANISHIDA MIKROTA'LIM O'QITISH TEKNOLOGIYASINING SAMARALI JIHLTLARI	487-492
<i>Ziyadullayeva Dilafruz Xudayberdiyevna</i> O'SMIRLARDA YETAKCHILIK XUSUSIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETINSIYAVIY FAOLIYATNING PEDAGOGIK ASOSLARI	493-498
<i>Muydinov Firuzjon Farxodjonovich</i> TIBBIY TA'LIM TALABALARIDA MEDIAKOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI	499-505
<i>Egamberdiyeva Feruza Abdimannonovna</i> MULTIMEDIA TEKNOLOGIYALARIGA ASOSLANGAN DASTURIY TA'MINOTNI LOYIHALASH	506-510
<i>Худойбердиева Дурдона Баходир қизи</i> ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННАЯ ТЕХНОЛОГИЯ ОБУЧЕНИЯ В РАБОТЕ С ОДАРЕННЫМИ ДЕТЬМИ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА	511-516
<i>Курбонов Дониёрбек Кахрамонович</i> ОБУЧЕНИЕ ПОЭЗИИ С ПРИМЕНЕНИЕМ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ	517-524

Shamsiddinov G'iyos Xusniddin o'g'li, Jurayeva Feruza Baxtiyor qizi

IQTISODIYOT YO'NALISHI TALABALARIGA EKONOMETRIKA FANINI O'TISHNING

INTERAKTIV USULLARI 525-532

Эрназаров Алишер Эргашевич, Бекмурадов Зариф Хуррамович

ЎҚУВ МАШҒУЛОТЛАРИНИНГ МОДУЛЛИ ВА ЛОЙИҲАЛАШТИРИЛГАН ТУРЛАРИ ҲАМДА

АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ 533-539

Esanova Nilufar Pulatovna

O'qituvchi, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
n.esanova@gmail.com

**MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA YENGIL SANOAT SOHASIDAGI
O'ZGARISHLAR**

Annotatsiya. Ushbu maqolada Mustaqillik yillarida O'zbekistonda yengil sanoat sohasidagi o'zgarishlar, xususan ko'nchilik, poyabzal, teri-charm mahsulotlari, shuningdek iste'mol buyumlarini ishlab chiqarishda erishilgan natijalar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, ko'nchilik, poyabzal, teri-charm mahsulotlari, iste'mol buyumlari, telpak, ot-ulov asboblari, attorlik.

Esanova Nilufar Pulatovna

Teacher, University of Economics and pedagogy

CHANGES IN LIGHT INDUSTRY IN UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Abstract. This article will talk about the changes in the field of light industry in Uzbekistan during the years of independence, in particular, the results achieved in the production of tanning, shoes, leather-leather products, as well as consumer items.

Keywords: Uzbekistan, tanning, shoes, leather products, consumer items, fur hat, horse-ulov tools, attorlik.

Есанова Лилия Пулатовна

Преподаватель, Экономико-педагогического университета

**ИЗМЕНЕНИЯ В ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА ЗА ГОДЫ
НЕЗАВИСИМОСТИ**

Аннотация. В данной статье рассказывается об изменениях в легкой промышленности Узбекистана за годы независимости, в частности, о результатах, достигнутых в производстве кожевенных изделий, обуви, изделий из кожи и кожи, а также потребительских товаров.

Ключевые слова: Узбекистан, кожевенное дело, обувь, кожевенные изделия, потребительские товары, тельпак, конно-навесное оборудование, галантерея

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I4Y2024N06>

Kirish. O'zbekiston bugungi kunda Markaziy Osiyodagi eng jadal rivojlanayotgan, mustaqil davlatlardan biri hisoblanadi. Noyob tabiiy-iqlim sharoiti, boy mineral-xomashyo manbalari, rivojlangan qishloq xo'jaligi va kuchli mehnat salohiyati nafaqat agrar sektorni, balki kuchli sanoatni ham ustuvor rivojlantirgan holda O'zbekiston Respublikasida ko'p tarmoqli xalq xo'jaligini tashkil etish uchun asos bo'ldi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda yengil sanoat sohalarining rivojlanishi va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar assortimentining kengayishi uchun qo'llanilayotgan chora-tadbirlar jonlanmoqda. To'qimachilik, tikuv-trikotaj, charm-poyabzal va mo'ynachilik sohalarida rivojlanishni ta'minlash uchun investitsiya qo'yish, texnologik rivojlanish va xorijiy bozorlarga mahsulot eksportini oshirish yo'nalishlarida keng qo'shimcha chora-tadbirlar olib borilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va metodologiya. Yengil sanoat, uning yetakchi tarmoqlari har qanday sanoat mamlakatining iqtisodiy rivojlanishida va xalqaro savdo aloqalarini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ushbu soha iqtisodiyotining turli jihatlarini o'rganishga turli mamlakatlar olimlari tomonidan katta e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy sharoitda sanoatning raqobatbardoshligi masalalari ayniqsa muhimdir.

O'zbekistonning yengil sanoati mahalliy xom ashyoni qayta ishlash bo'yicha ko'p asrlik an'analarga ega, xususan paxta tolasi — mamlakat milliy boyligi, ipak, jun va charm – mahalliy aholining qadimiy hunarmand turlaridan biri bo'lgan. Shuningdek, Buyuk ipak yo'lining tarmoqlari O'zbekiston orqali o'tishi va o'zbek hunarmandlari tomonidan ishlab chiqarilgan paxta va ipak matolar, nafis va kundalik kiyimlar, milliy poyabzallar, asl rasmlari bo'lgan suzanlar, bo'yalgan sopol idishlar dunyoning ko'plab mamlakatlarida mashhur edi.

Yangi geosiyosiy sharoitda iqtisodiy o'sishni, bandlikni ta'minlash va turmush darajasini oshirishda yengil sanoatning muhim rolini hisobga olgan holda, dunyoning yetakchi davlatlari ushbu sohani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda va unga katta sarmoyaviy yordam ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasining yengil sanoatida mustaqillik yillarida iqtisodiyotning mahalliy real sektoridagi zamonaviy asbob-uskunalarining eng katta ulushini jamlab, tashkil etilayotgan korxonalar soni bo'yicha xorijiy investorlar uchun eng yirik mayoq bo'ldi[1].

O'tgan asrning 90-yillari boshlarida mamlakatda paxtani chuqur qayta ishlash va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini xalqaro standartlar darajasida ishlab chiqarish uchun zarur texnologiyalar va uskunalar yo'q edi. Faqatgina bitta chiqish yo'li qoldi-sanoatni jadal rivojlantirish uchun moliyaviy mablag'larni sarflashga tayyor bo'lgan xorijiy investorlarni jalb qilish va ularning tajribasi asosida yuqori texnologiyali zamonaviy quvvatlarni yaratish kerak edi. Buning uchun mamlakatimizga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish sohasida samarali qonunchilik bazasi yaratildi.

Mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun berilgan imtiyozlar va preferensiyalar qisqa vaqt ichida mamlakatda nafaqat paxta, qattiq mato va trikotaj mato, balki tayyor trikotaj buyumlar, shuningdek, xalqaro standartlarga javob beradigan va xorijiy analoglarning munosib raqobatchilari bo'lgan tikuvchilik va trikotaj sanoati uchun yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishga imkon berdi.

Shu jumladan, ijobiy omil shundaki, investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun texnologik uskunalar, xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yangi qurilayotgan va rekonstruksiya qilinayotgan korxonalar respublika hududiga olib kirilganda QQS va bojxona to'lovlari bo'yicha soliq imtiyozlari nazarda tutiladi.

Ko'n-poyabzal sanoati mahalliy xomashyodan yumshoq va qattiq charm, tabiiy va sun'iy charmdan poyabzal, shuningdek, telpak, ot-ulov asboblari, attorlik buyumlari, to'qimachilik va boshqa mashinalar uchun mahsulotlar ishlab chiqaradi. Mustaqillikning dastlabki yillarida ko'nchilik sohasidagi barcha zavodlar negizida Toshkentda "O'zbekiston ko'n va sun'iy charm

ishlab chiqarish birlashmasi” tashkil etildi. U 1994-yildan “Charm” korporatsiyasi deb nomlandi.

O‘zbekistonda poyabzal tikishda o‘z an‘analariga ega. 1995-yil “Farg‘onapoyabzal” aksiyadorlik jamiyati bilan Germaniyaning “Salamander” firmasi ishtirokida “O‘zsalaman” qo‘shma korxonasi mahsulot chiqara boshladi. Bu davrdan iste‘mol bozorida “O‘zSalaman” qo‘shma korxonasining mahsulotlarni keng yoyildi[2].

Respublikada charm-poyabzal tarmog‘i boshqaruvi tizimini takomillashtirish maqsadlarida tarmoqda yagona rahbarlikni amalga oshiradigan, ko‘nchilik, poyabzal, teri-charm mahsulotlari, shuningdek iste‘mol buyumlarini ishlab chiqarish, teri tayyorlash bilan shug‘ullanadigan korxonalarini o‘z ichiga olgan “O‘zbekcharm-poyabzali” uyushmasi tashkil etildi (2000-yil 23-fevral). Uyushmaning barcha viloyatlarda teri xom ashyosini tayyorlash bilan shug‘ullanadigan viloyatlar savdo-xarid korxonalarini, terini qayta ishlash; poyabzal; charm-attorlik mahsulotlari; sun‘iy charm, karton, noto‘qima materiallar ishlab chiqarish korxonalarini mavjud edi.

Uyushma tarkibida 15 ta terini qayta ishlash zavodlari (eng yiriklari: yillik quvvati 35,4 mln. dm² charm bo‘lgan “O‘zbekiston” va yillik quvvati 40 mln. dm² bo‘lgan “Ko‘nchi” aksiyadorlik jamiyatlari), 22 ta poyabzal ishlab chiqarish zavodlari (yiriklari: “O‘zSalaman” (yillik quvvati 500 ming juft; “Kibo bolalar poyabzali” (330 ming juft) qo‘shma korxonalarini; “Toshkent poyabzali” (567 ming juft), “Qo‘qon poyabzali” (1182 ming juft), “Farg‘ona poyabzali” (860 ming juft), Buxoro “Naqshbandiy” (748 ming juft) aksiyadorlik jamiyatlari), 4 ta charm-attorlik korxonalarini (“Tarandubitel”, “Farg‘ona sun‘iy charm zavodi” (yillik quvvati 900 ming m² sun‘iy charm) aksiyadorlik jamiyatlari va boshqalar) faoliyat ko‘rsatdi. Uyushma korxonalarida 18,4 mln. dm² charm mahsulotlari, 88 mln. juft turli poyabzal ishlab chiqarildi (2004).

O‘zbekistonda mo‘ynado‘zlik ham rivojlangan. 1996-yilda Namangan shahrida sun‘iy mo‘yna fabrikasi (O‘zbekiston — Germaniya qo‘shma korxonasi) ishga tushirildi. Keyingi yillarda mo‘ynali kiyim-kechaklar ishlab chiqaradigan sexlar, qo‘shma, kichik va xususiy korxonalar tashkil topdi. O‘zbekiston qorako‘li va undan tayyorlangan po‘stin, beretka, manto va boshqa mahsulotlar xalqaro bozorlarda yuqori qadrlanadi. “O‘zbek qorako‘li” kompaniyasi (1998) tarkibidagi xo‘jaliklar va korxonalar qorako‘l teri yetishtirish, uni oshlash, qo‘rako‘ldan tikilgan turli kiyim-boshlar ishlab chiqarish va sotish bilan shug‘ullandi (2005-yilda O‘zbekistonda 675,2 ming dona qorako‘l teri tayyorlandi). Respublikaning o‘zida tayyorlangan va chetdan keltirilgan mo‘ynalar (ondatra, nutriya, qunduz va boshqa terisi)dan ustki va bosh kiyimlari tikildi.

O‘zbekistonda chinni-fayans sanoatida turli xil chinni taxtacha, sirlangan koshin va boshqa sanitariya-qurilish fayans mahsulotlarini ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Mahalliy sanoatdagi kulollik korxonalarida maxsus rangli tuproqdan sirlab tayyorlangan sopol-mayolika buyumlar, qurilish materiallari ham ishlab chiqarildi. 2005-yilda O‘zbekiston chinni-fayans sanoatida 2449,1 mln. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Tahlil va natijalar. Mebel sanoat usulida ishlab chiqarila boshlagunga qadar uy-ro‘zg‘or mebellari (xontaxta, kursi, jovon, sandiq va boshqa) kustar va yarim kustar korxonalarida tayyorlangan[3].

O‘zbekistonda mebel sanoati korxonalarini boshqaradigan “O‘zbekmebel” birlashmasi tashkil etildi. 1991-yil shu birlashma negizida “O‘zbekmebel” ijara korxonalarini uyushmasi

tuzildi. 1993-yil yanvarda uyushma “O‘zbekmebel” davlat aksiyadorlik birlashmasiga aylantirildi. Birlashma tarkibida 36 mebel ishlab chiqarish aksiyadorlik birlashma va korxonalari: “Yangiyo‘l” ishlab chiqarish tijorat shirkati, 13 mebel fabrikasi, 3 ta mebel ishlab chiqarish birlashmasi, 6 mebel birlashmasi, “O‘zbekqog‘oz” ijara korxonasi, mebel ko‘zgusi korxonasi, yog‘och kesish sta noklari zavodi, firma magazinlari faoliyat ko‘rsatdi. Rishton mebel fabrikasi (1994) turli maqsadlarga mo‘ljallangan zamonaviy mebellarni ishlab chiqarishga o‘tdi. Mustaqillik yillarida mebel sanoati korxonalari xususiyashtirildi va “O‘zbekmebel” davlat aksiyadorlik birlashmasi tugatildi. Tarmoqni rivojlantirish kichik va o‘rta xususiy korxonalar tashkil etish, korxonalarni zamonaviy uskunalardan bilan qayta jihozlash va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, korxonalarining eksport imkoniyatlarini oshirish, xorijiy firmalar bilan qo‘shma korxonalar tashkil etish hamda iqtisodiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish yo‘nalishlarida olib borildi.

O‘zbekistonda tayyorlangan mebellar eksporti yo‘lga qo‘yildi. 1997-yilda mahalliy sanoat korporatsiyasining bir necha korxonalari va “Fayz” qo‘shma korxonasi aksiyadorlik jamiyati negizida mebel sanoatidagi yirik “Fayz” xolding kompaniyasi tashkil topdi. Kompaniya tarkibida 30 korxonalar va tashkilot, shu jumladan chet el investitsiyalari ishtirokidagi 10 ta qo‘shma korxonalar mavjud edi. Kompaniya korxonalarida yumshoq va ofis mebellari, oshxonalar mebellari, yotoqxonalar to‘plamlari, maktablar va o‘quv yurtlari, bolalar sporti, mehmonxonalar uchun mebellar, ma‘muriy binolarni bezash mebellari, porolon, gugurt, laminatsiyalangan DSP tagliklari ishlab chiqardi. Mahsulotlarining katta qismi eksport qilindi.

Mebel sanoatida har xil mebel to‘plamlari (mehmonxonalar, oshxonalar, kabinet, yotoqxonalar mebellari, maktab, tibbiyot, laboratoriya mebellari), milliy mebel (xontaxta, sandiq va boshqa) namunalarini, hashamatli mebellar yig‘malarini ishlab chiqarish o‘zlashtirilgan. Mebel sanoati korxonalarida 6104,3 mln. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi (2003; 2000-yilda 7339,9 mln. so‘m).

Mahalliy sanoat yirik ishlab chiqarish xo‘jalik majmui bo‘lib, respublikada ishlab chiqariladigan xalq iste‘moli mollarinin yillik umumiy hajmida uning hissasi ancha salmoqli bo‘ldi. Mahalliy sanoat korxonalarida, asosan, mahalliy xom ashyo resurslaridan turli-tuman xalq iste‘moli mollari ishlab chiqarildi. Uning tarkibida qora metallurgiya, metallga ishlov berish, yog‘ochni qayta ishlash sanoati, shu jumladan, mebel sanoati, qurilish materiallari, shisha va chinni-fayans, yengil sanoat va oziq-ovqat sanoati korxonalari, xalq hunarmandchiligining zardo‘zlik, tikuvchilik, to‘quvchilik, pichoqchilik, badiiy kashtachilik (so‘zana, gulko‘rpa, choyshab, zardevol, palak, kirpech), do‘ppido‘zlik, o‘ymakorlik, misgarlik, zargarlik, kandakorlik, rixtagarlik, kulollik, milliy cholg‘u asboblari yasash, kosibchilik va boshqa tarmoqlari bor. Shahar va shaharchalarda, qishloqlarda katta-kichik xususiy hamda jamoa korxonalari, qo‘shma korxonalar, fabrika, birlashmalar faoliyat ko‘rsatdi. Tarmoqda 3000 ga yaqin nomda madaniy, maishiy, ro‘zg‘or, xo‘jalik mollari ishlab chiqarildi[4].

Badiiy buyumlar fabrikasi va Toshkent kasanachilik fabrikalari uyda ishlaydigan ishchilardan foydalanishga ixtisoslashgandi. Tarmoqda nodir metallar. toshlar va sintetik materiallar (sun‘iy kristallar) asosida mahsulotlar ishlab chiqaradigan “Fonon” IIB birlashmasi faoliyat ko‘rsatdi. Korxonalarda yangi texnika, texnologiya jadal sur‘atlarda joriy etilmoqda. 1-Toshkent zargarlik buyumlari zavodi negizida AQSH ning “Gold Souk Trading Incorporated” firmasi bilan hamkorlikda qimmatbaho buyumlar ishlab chiqaradigan “Kumush” qo‘shma korxonasi ishga tushirildi (1994). 1994-yil 9-sentabrda O‘zbekiston mahalliy sanoat vazirligi

tugatilib, “Mahalliy sanoat” davlat korporatsiyasi va uning hududiy (viloyatlar) sanoat-savdo konsernlari tashkil etildi. 1995-yilda respublika mahalliy sanoati tarmog‘ida 168 aksiyadorlik jamiyati, 97 jamoa korxonasi. 33 mas‘uliyati cheklangan jamiyat, 80 xususiy firmalar faoliyat ko‘rsatdi. 1997-yil 15-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalliy sanoatni boshqarishni takomillashtirish to‘g‘risida” farmoni bilan “Mahalliy sanoat” davlat korporatsiyasi tugatilib, mavjud hududiy sanoat savdo konsernlari negizida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar “Mahalliy sanoat” hududiy ishlab chiqarish savdo aksiyadorlik kompaniyalari tashkil etildi.

O‘zbekiston rahbariyati tomonidan turli yillarda qabul qilingan yengil sanoatni rivojlantirish bo‘yicha dasturiy hujjatlar sohani rivojlantirishning yangi bosqichiga kuchli turtki berdi. Ushbu yechimlarning amalga oshirilishi, shuningdek, hukumat tomonidan ko‘rsatilayotgan salmoqli yordam ishlab chiqarish bazasini modernizatsiya qilish va texnologik yangilash, yangi uskunalar sotib olish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirishga katta xorijiy investitsiyalarni jalb etish imkonini berdi. Shu bilan birga, asosiy e‘tibor tolani qayta ishlashning yanada barqaror va muvozanatli o‘shishiga, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ulushining asta-sekin o‘shishiga va uning raqobatbardoshligini oshirishga qaratildi.

Muhokama. Mahalliy sanoat va hunardmandchilikning sanoat ishlab chiqarishini mahalliyashtirishdagi ulkan imkoniyatlaridan yanada to‘liqroq foydalanish va tarmoqni rivojlantirishda Respublika Prezidentining “Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o‘rtasida kooperatsiyani kengaytirishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmoni (2006-yil 6-yanvar.) muhim ahamiyatga ega bo‘ldi[5].

2013-2016-yillarga mo‘ljallangan dastur asosida viloyatning sanoat salohiyatini rivojlantirish doirasida Qarshi shahrida jami 98 ta loyiha amalga oshirilishi rejalashtirilib, ularning umumiy qiymati 78,1 million AQSH dollariga teng bo‘ldi. Shundan qiymati 8,9 million AQSH dollariga teng 40 ta istiqbolli loyiha 2013-yilda to‘liq amalga oshirilishi ko‘zda tutildi. Xarajatlarining 3,7 million dollari tashabbuskorlarning o‘z mablag‘lari. 5,6 million dollari bank kreditlari va 1,2 million dollari xorijiy sarmoyalar hisobidan moliyalashtirilishi belgilandi[6].

“Amiros kapital” xususiy korxonasi “Agrobank”ning Qarshi shahar bo‘limidan 100 ming AQSH dollari miqdorida imtiyozli kredit olib, Xitoydan umumiy qiymati 70 million so‘mlik zarur asbob-uskunalarini olib kelib o‘rnatdi. Yangi texnologiya ishga tushirilishi bilan bir kunda 10 xil turdagi 250-300 kilogramm mahsulot tayyorlash quvvatiga ega bo‘ldi. Mazkur uskunalar bir qator tejamkorlik xususiyatlari bilan ajralib turdi. Bir tomondan, mahsulotning qisqa muddatda tayyor holiga keltirilishi ishlab chiqarish sur‘atini oshirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, elektr energiyasini tejash imkoniyati yuzaga keladi.

Qarshi shahrida joylashgan “Ibrat Sifat tekst” ma‘suliyati cheklangan jamiyati ham 2013-yili umumiy qiymati 225 ming AQSH dollari miqdoridagi loyihani hayotga tatbiq etib, 80 million so‘mlik 30 ta zamonaviy tikuv mashinasini Xitoydan olib keldi. Korxonada 15 turdagi kiyim-kechak va trikotaj mahsulotlarini tikishni yo‘lga qo‘ydi va qorxon bir yilda qariyb 40 ming dona tayyor mahsulot ishlab chiqarish quvvatiga ega bo‘ldi[7].

Shubhasiz, ushbu va boshqa investitsiya loyihalari paxta tolasini qayta ishlash hajmini oshirish, O‘zbekiston yengil sanoat korxonalarini zamonaviy yuqori texnologiyali uskunalar bilan ta‘minlash, qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish va tayyor to‘qimachilik mahsulotlarini jahon standartlariga muvofiq ishlab chiqarishni ta‘minlash imkonini beradi. Sohani yanada

rivojlantirish maqsadida, bizning fikrimizcha, eski korxonalarni texnik qayta jihozlash va rekonstruksiya qilish, paxta tolasini qayta ishlash quvvatini taqsimlash, tarmoq asosida faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishni tashkil etish, to'qimachilik korxonalari, sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni ko'paytirish zarur.

Xulosa. Bizning fikrimizcha, mamlakatda yengil sanoatni yanada rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini o'zgartirmasdan quyidagi tadbirlarni amalga oshirish zarur:

- sanoatni rivojlantirish prognozini tuzishda tashqi omillarning ta'sirini hisobga olish;
- mehnat unumdorligini oshirish orqali to'qimachilik sanoatining eksport salohiyatini oshirish;
- eng yangi texnologiyalarni joriy etish orqali sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish;
- mamlakatda tashqi va ichki bozorlar uchun tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun yangi imkoniyatlar yaratish[8].

Xullas, mamlakatimizda yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va bu mahsulotlar bilan aholini ta'minlash turli omillarni hisobga olgan holda ish yuritishni talab qiladi. O'zbekistonning joylashgan tabiiy-iqtisodiy geografik o'rni, sharoiti va hududlarning demografik vaziyatini o'rganish asosida xalq yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish maqsadga muvofiq.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Мухторова У.К. ЛЕГКАЯ ПРОМЫШЛЕННОСТЬ УЗБЕКИСТАНА: ЦЕНТР ПРИТЯЖЕНИЯ ИНВЕСТИЦИЙ // Экономика и социум. 2017. №4 (35).
2. Boltaboyev M.R. To'qimachilik sanoatida marketing strategiyasi. Monografiya. –T.: Fan, 2004. -224 b.
3. Ishmuhammedov A.E, Rahimova M.R. Mintaqaviy iqtisodiyot. Toshkent-Iqtisodiyot-2010.
4. Azlarova M.M. Yengil sanoat texnologiyasi. Toshkent-Iqtisodiyot-2019.
5. Xalq so'zi, 2006-yil, 6-yanvar.
6. Qarshi shahri: \$ 8,9 million = 49 istiqbolli Loyiha. //Qashqadaryo, 2013-yil 29-noyabr.
7. Qarshi shahri: \$ 8,9 million = 49 istiqbolli Loyiha. //Qashqadaryo, 2013-yil 29-noyabr.
8. Турсунов Б.О. Стратегия развития легкой промышленности Республики Узбекистан // Вестник Института экономики Российской академии наук. 2017. №5.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 4 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).